

O'QITISH VA TA'LIM OLISH SHAROITLARINI
O'RGANISH XALQARO TADQIQOTI

TALIS TADQIQOTI



TSBM

TALIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA
XALQARO TADQIQOTLARINI AMALGA OSHIRISH
MILLIY MARKAZI



OECD



Muqaddima

Biz o'qituvchilik kasbiga qadam qo'yish uchun eng yaxshilarni va salohiyatlilarni jalb qilishimiz kerak. O'qituvchilar - yaxshi ta'lim har bir bolaning kelgusi muvaffaqiyati uchun muhim asos bo'ladigan, bilimga asoslangan iqtisodiyotning kalitidir. TALIS tadqiqoti o'qituvchilar o'zgarishlarga ochiq ekanligi, o'rganish va o'z faoliyati davomida rivojlanib borishga intilishi haqida mustahkam dalillarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ular hamkasblari va maktab rahbarlari bilan ishlashda ko'proq tashabbus ko'rsatishi, kasbiy rivojlanish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi kerak.



©John Nordahl

Andreas Shlyaher

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti,
Ta'lim va ko'nikmalar bo'yicha direktori

TALIS bir soʻz bilan aytganda

- 2013-yilda 34 ta mamlakat va iqtisodiyotdan 4 milliondan ortiq oʻqituvchilarni oʻz ichiga olgan 6 500 dan ortiq maktablarning 100 000 nafardan ortiq oʻrta maktab oʻqituvchilari va ularning maktab rahbarlari tasodifiy tanlab olindi. 45 dan ortiq mamlakatlar TALIS 2018 tadqiqotida ishtirok etish uchun qoʻshildi;
- TALIS oʻqituvchilar va maktab rahbarlarning kasbiy va pedagogik rivojlanishi, shuningdek, taʼlimdagi muhit va sharoitlar haqida tegishli tahlillarga imkon beruvchi aniq koʻrsatkichlar boʻyicha ishonchli va taqqoslanadigan maʼlumotlarni ishlab chiquvchi tadqiqotdir;
- TALIS tadqiqoti 2008, 2013 va 2018-yillarda oʻtkazilgan boʻlib, keyingi tadqiqot 2024-yilda oʻtkazilishi rejalashtirilgan;
- Tadqiqot doirasida hukumatlar, xalqaro konsorsium, OECD va oʻqituvchilar kasaba uyushmalari oʻrtasidagi hamkorlikda ishlar tashkil etiladi;
- Tadqiqot oʻqituvchilar va maktab direktorlariga taʼlimni tahlil qilish va taʼlim siyosatining asosiy sohalarida qarorlar ishlab chiqish boʻyicha oʻz fikrlarini bildirish imkoniyatini beradi;
- Tadqiqot oʻzi kabi qiyinchiliklarga uchrayotgan mamlakatlarga boshqa davlatlar bilan solishtirish va siyosiy yondashuvlar boʻyicha maʼlumot olish imkonini beradi;

TALIS tadqiqotida ishtirok

- TALIS 2008 tadqiqotida 24 mamlakat va iqtisodiyot ishtirok etdi.
- 2013-yilda bu raqam 34 taga yetdi va 2014-yilda yana 4 ta davlatda tadqiqot o'tkazildi.
- 2018-yilda 45 dan ortiq mamlakat va iqtisodiyot ishtirok etdi.

TALIS 2024 tadqiqotida ishtirok etuvchilar: 50 ta mamlakat va iqtisodiyotlar

Avstraliya	Vengriya	Norvegiya	Braziliya	Malta
Avstriya	Islandiya	Portugaliya	Bolgariya	Ruminiya
Belgiya	Isroil	Slovakiya	Xitoy (Shanxay)	Rossiya Federatsiyasi
Kanada (Alberta)	Italiya	Sloveniya	Xitoy Taypeyi*	Saudiya Arabistoni
Chili	Yaponiya	Ispaniya	Kolumbiya	Singapur
Chexiya	Latviya	Shvetsiya	Xorvatiya	BAA
Daniya	Koreya	Turkiya	Kipr*, ^{1,2}	Vietnam
Estoniya	Meksika	Buyuk Britaniya	Gruziya	O'zbekiston
Finlandiya	Niderlandiya	AQSH	Qozog'iston	Ozarbayjon
Fransiya	Yangi Zelandiya	Argentina (BA)	Litva	Kosta-Rika

*IEA Xalqaro tadqiqot markazi orqali ishtirok etish

1. Turkiya tomonidan eslatma:

Ushbu hujjatda "Kipr" ga tegishli ma'lumotlar orolning janubiy qismiga tegishli. Orolida Kipr turk va turk xalqlarini ifodalovchi yagona hokimiyat yo'q. Turkiya Shimoliy Kipr Turk Respublikasini (KKTC) tan oldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida barqaror va adolatli yechim topilmaguncha, Turkiya "Kipr muammasi" bo'yicha o'z pozitsiyasini saqlab qoladi.

2. OECD va Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha Yevropa Ittifoqi davlatlarining eslatmasi:

Kipr Respublikasi, Turkiyadan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari tomonidan tan olingan. Ushbu hujjatdagi ma'lumotlar Kipr Respublikasi hukumati tomonidan samarali nazorat qilinadigan hududga tegishli.

Ta'lim berish siyosatning kun tartibiga ko'tariladi

Samarali o'qitish, salohiyatli o'qituvchilar, shuningdek maktabdagi kuchli boshqaruv tizimi, yuqori darajadagi muvaffaqiyatli o'quvchilarni yetishtirishning kalitidir. Mamlakatlar quyidagi kabi savollarga javob izlaydilar:

- Bugungi kunda maktab o'qituvchilari turli qiyinchiliklarga dosh berishga qanchalik tayyor?
- Baholash va o'zaro fikr-mulohaza almashish tizimlari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qanday qilib samarali qo'llab-quvvatlashi mumkin?
- Maktab va o'quvchilarning yutuqlarini takomillashtirish maqsadida maktabning boshqaruv tizimini qanday kuchaytirish mumkin?
- Siyosatchilar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarflangan sarmoyalar o'qituvchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga qanday ishonch hosil qilishlari mumkin?

TALIS tadqiqotida nimaga e'tibor qaratiladi?

2008-yildagi TALIS tadqiqotining birinchi davriyligi o'rta ta'limdagi o'qituvchilarga qaratilgan bo'lib, u to'rtta qit'a bo'ylab 24 ta mamlakatda o'tkazilgan.

2013-yildagi TALIS tadqiqotining ikkinchi davriyligi yanada kengroq qamrovga ega bo'lib, u 34 ta ishtirokchi mamlakat yoki iqtisodiyotni o'z ichiga oldi. Alohidalik yoki jamoa yetakchiligi, o'qituvchilarning boshlang'ich malakasi va o'quvchilarni baholash amaliyoti bo'yicha yangi ko'rsatkichlar kiritildi. TALIS 2013 tadqiqotida, shuningdek, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, mamlakatlar PISA 2012 tadqiqotida qatnashgan maktablarda TALIS 2013 tadqiqotini o'tkazish imkoniyatiga ega edilar.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarida o'qituvchilarning ish vaqtini tartibga solish

- OECD mamlakatlarida o'qituvchilar boshlang'ich bosqichda yiliga o'rtacha 1044 soat, boshlang'ich bosqichda 784 soat, umumiy o'rta bosqichda 703 soat va yuqori sinflarda 657 soat dars berishadi. OECD mamlakatlarining yarmidan ko'pida o'qituvchilar ta'limining har bir bosqichida darsdan tashqari ishi jamoaviy bitim va shartnomalar kabi rasmiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlarda o'qituvchi maktabda bo'lishi kerak bo'lgan sinf va darsdan tashqari soatlarning soni yoki ishning barcha turlarini bajarish uchun umumiy soatlar ko'rsatilgan.
- Masalan, Shvetsiyada o'qituvchining bir o'quv yili uchun umumiy ish vaqti jamoa shartnomasida tasdiqlanadi va maktab rahbari bu vaqtni haftaga taqsimlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shu jumladan o'qituvchining sinf va darsdan tashqari ishlari uchun sarflagan vaqtlarni ham inobatga oladi. Italiyada esa o'qituvchi yiliga 80 soatgacha hamkasblari bilan darsdan tashqari ishlarga vaqt ajratishi lozim, shundan 40 soatini pedagogik kengash va ota-onalar bilan uchrashuvlarga, qolgan 40 soatini esa o'qituvchilar bilan uchrashuvlarga ajratish kerak bo'ladi.
- Finlandiyada o'qituvchilarning ish haftasi davomiyligi eng qisqa vaqtlardan biri – haftasiga 33 soat (OECD, 2019[4]). Boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari o'qishga har yili OECD o'rtacha ko'rsatkichidan 100 soat kamroq sarflaydi. Boshqa barcha vazifalar uchun (darsdan oldingi va keyingi ishlar, maktabni rivojlantirish, hamkasblar va ota-onalar bilan jamoaviy ishlash) jamoa shartnomasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun haftasiga uch soatlik ish va o'rta maktab o'qituvchilari uchun ikki haftada uch soat belgilangan.



Buni bilarmidingiz?

O'qituvchilarning deyarli uchdan bir qismi **o'qituvchilik** kasbi o'z mamlakatida kasb sifatida qadrlanadi deb hisoblasada, maktab qarorlariga o'z hissasini qo'shishi mumkinligi haqida ma'lumot bergan o'qituvchilar, jamiyatda o'qitish qadrli ekanligi haqida ko'proq ma'lumot beradilar (TALIS 2013 tadqiqoti).

O'qituvchilar individual va hamkorlikdagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan kasbiy rivojlanish tadbirlarida qatnashishlari, boshqa maktablarga tashrif buyurishlari yoki o'qituvchilarining internet tarmoqlari orqali kuzatishlari, hamda boshqa yondashuvlar haqida xabar beradilar, masalan, bunga kichik guruhlarni o'z ichiga olgan amaliyotlar, o'quvchilar bajarishi uchun bir haftadan ko'proq vaqt talab qilinadigan loyihalar va qo'shimcha ma'lumotlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni kiritish mumkin (TALIS 2013 tadqiqoti).

O'qituvchilar baholash va o'zaro fikr-mulohazalar almashish sinfdagi o'qitishga ta'sir qilishi borasida qanchalik ko'p ma'lumot bersalar, ularning shaxsiy samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday holat o'z ishidan qoniqishda ham o'z aksini topadi (TALIS 2013 tadqiqoti).

TALIS 2018 tadqiqotining dizayni

E'tibor markazlari

TALIS 2018 tadqiqoti TALIS 2013 tadqiqotining muvaffaqiyatiga asoslanadi, unda maktab rahbariyati, o'qituvchilarning professional muhiti, o'qitish sharoitlari, maktab va o'qituvchilarning samaradorligiga katta e'tibor qaratiladi.

TALIS 2018 tadqiqotining o'ziga xos mazmuni ishtirokchi davlatlar tomonidan yangi ko'rsatkichlarni kiritish imkoniyati bilan ustuvor reyting mashg'ulotlari orqali belgilanadi. TALIS 2018 tadqiqoti TALIS 2013 tadqiqoti bilan bir xil tarkibga ega bo'lib, quyidagi sohalarda tadqiqot olib boradi:

- o'qituvchilarning ta'lim amaliyoti sifati va o'qitishga bo'lgan ishonchlari;
- Ta'lim muhiti: o'qituvchilar va maktablarning o'ziga xos xususiyatlari;
- maktabdagi boshqaruv tizimining ahamiyati;
- o'qituvchilarning kasbiy amaliyotlari va sinf muhitini o'rganish;
- o'qituvchi va boshlang'ich ta'limning o'zaro muvofiqligi;
- kasbiy rivojlanish, baholash va o'zaro fikr-mulohaza almashish orqali o'qitishni takomillashtirish;
- maktab va ta'lim muhiti hamda tizim vakillari o'rtasidagi aloqalarning o'zaro muvofiqligi;
- o'qituvchining shaxsiy samaradorligi va o'z ishidan qoniqishi hamda ularning ahamiyati;
- sinfdagi o'qituvchilarning yangiliklarga ochiqqligi;
- sinfdagi o'zaro tenglik va xilma-xillik bilan bog'liq muammolar.

Tadqiqotda kimlar ishtirok etadi?

TALIS tadqiqotida maktablar va maktab o'qituvchilari ishtirok etish uchun tasodifiy tarzda tanlab olinadi. Har bir mamlakatda ishtirokchi sifatida 200 ta maktab va ushbu maktablarning har biridan 20 nafar o'qituvchi har bir ta'lim bosqichlari (boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, o'rta ta'lim) bo'yicha tanlab olinadi.

Bundan tashqari, har bir tanlab olingan maktab direktori ham maxsus so'rovnomada ishtirok etadi.

Tadqiqot qanday shaklda o'tkaziladi?

Har bir so'rovnomani to'ldirish uchun taxminan 45-60 daqiqa vaqt sarflanadi. TALIS so'rovnomalari (o'qituvchilar va maktab direktorlari uchun alohida) onlayn yoki qog'oz shaklda to'ldiriladi.

Javoblar butunlay maxfiy bo'lib, o'qituvchilar, maktab direktorlari yoki maktablarning ma'lumotlari hech qachon individual tarzda oshkor etilmaydi.

Taqdim etiladigan materiallar

TALIS tadqiqotida bir qator tahliliy ma'lumotlar, jumladan, bir qator xalqaro hisobotlar (asosiy hisobot, amaliy tadqiqotlar hisoboti, texnik hisobot), umumiy hisobotda keltirilgan tahlilga asoslangan ikkita tematik hisobot taqdim etiladi.

Bundan tashqari, TALIS dasturida tadqiqotchilarga qo'shimcha tahlillarni o'tkazish uchun to'liq hujjatlashtirilgan xalqaro ma'lumotlar bazasi va ikkita tahlil qo'llanmasi bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib beradi.

Boshqarish tizimi va tuzilmasi

TALIS tadqiqoti Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyoti Tashkiloti (OECD) tomonidan tashabbus qilinib, ishtirokchi mamlakatlar va iqtisodiyotlar tomonidan boshqariladi. TALIS Boshqaruv kengashi (TGB) va uning uning Strategik rivojlantirish guruhi (SDG) qarorlarni qabul qilishning asosiy organlari hisoblanadi.

TALIS xalqaro konsorsiumi, Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) boshchiligidagi Niderlandiyaning, Amsterdam va Germaniyaning Gamburg shahrida joylashgan bosh idoralari OECD kotibiyati nomidan xalqaro miqyosda tadqiqot o'tkazish uchun mas'uldir. Bundan tashqari, Kanada statistika markazi (Ottava, Kanada) hamda ACER Ta'lim tadqiqotlari bo'yicha Avstraliya kengashi (Melburn, Astraliya) tashkilotlari IEA ning hamkorlari hisoblanadi.

Tadqiqotning ishtirokchi mamlakatlar uchun foydali jihatlari

Ispaniyaning TALIS 2008 va TALIS 2013-yillardagi ishtiroki bizga o'qitishga bo'lgan munosabatimiz va ta'lim oldida turgan qiyinchiliklar haqida o'ylash imkoniyatini berdi. TALIS tadqiqotining natijalari jamiyatimizda tizimning barcha vakillari uchun muhim masalalar bo'yicha, jumladan, muntazam kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik va ularning kundalik faoliyatlaridagi baholash hamda o'zaro fikr-mulohaza almashishning kelgusidagi manfaatli jihatlari borasida munozaralarni keltirib chiqardi. Bu ikki yo'nalish, baholash va o'zaro fikr-mulohaza almashish Ispaniyada o'qituvchilarning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshirish vositasi sifatida yanada rivojlantirilishi kerak.

Bu muhim bosqich, chunki TALIS tadqiqotida ta'kidlanganidek, o'qituvchilar ta'lim tizimimizda muhim rol o'ynaydi va ularning jamiyatdagi qadr-qimmatini beqiyosdir.



Montserrat Gomendio,

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti,
Ta'lim va ko'nikmalar bo'yicha direktor o'rinbosari,
Ispaniyaning ta'lim, kasb-hunar ta'limi va universitetlar bo'yicha sobiq
davlat kotibi va ishtirokchi davlatlar TALIS kengashining sobiq raisi



Tadqiqotning o'qituvchilik kasbiga foydali jihatlari

TALIS - bu o'qituvchilarning qarashlarini o'rganuvchi yagona xalqaro tadqiqotdir. Ushbu tadqiqot mamlakatlarning o'qituvchilar siyosatini rivojlantirish uchun muhim dalillarni taqdim etadi. Biz bilamizki, o'qituvchilarning ovozi ta'lim islohotlarining barqaror va samarali rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. TALIS tadqiqoti o'qituvchilarning ish faoliyatlaridagi kundalik haqiqatiga e'tibor berganligi sababli, ushbu kasb egalarini TALIS tadqiqotida ishtirok etishga qiziqishlarini orttiradi.

TALIS 2013 tadqiqotining asosiy ma'lumotlaridan biri shundaki, shaxsiy manfaati yuqori bo'lgan o'qituvchilar, ta'lim berishdan ko'proq zavqlanadilar hamda yangilikka moyil bo'ladilar, bundan farqli o'laroq o'ziga ishonchi bo'lmagan o'qituvchilar bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladilar.

Har ikki xalqaro ta'lim - o'qituvchilar uyushmalari global federatsiyasi va OECD kasaba uyushmasining maslahat qo'mitasi TALIS 2013ni qo'llab-quvvatladi. Uning natijalari nafaqat o'qituvchilar va ularning uyushmalari o'rtasida milliy, balki xalqaro miqyosda o'qituvchilik kasbiga bag'ishlangan xalqaro sammitda siyosiy muhokamalarini boyitadi.



John Bangs,
OECD Kasaba uyushmasining maslahat qo'mitasi ta'lim,
o'qitish va bandlik siyosati bo'yicha ishchi guruhi raisi



Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va uning ta'lim masalalari bo'yicha direksiyasi

OECD tashkiloti hukumatlarga siyosiy tajribani taqqoslash, umumiy muammolarga javob izlash, foydali amaliyotlarni aniqlash va ichki hamda xalqaro siyosatni muvofiqlashtirish muhitini taqdim etadi. U butun dunyodagi demokratiya va bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarini birlashtiradi:

- barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab -quvvatlash;
- ish bilan bandlikni takomillashtirish;
- turmush darajasini oshirish;
- moliyaviy barqarorlikni saqlash;
- a'zo va a'zo bo'lmagan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish;
- jahon bozorining o'sishiga hissa qo'shadi.

Bugungi globallashtirilgan iqtisodiyotda, ta'lim o'sish va rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. OECD tashkilotining ta'lim va ko'nikmalar bo'yicha direksiyasi XXI asrda ta'lim tizimlari oldida turgan dolzarb vazifalar, jumladan o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berishda o'qitish va ta'lim olish sifatini qanday yaxshilashga e'tibor qaratadi.

Qisman o'qituvchilarning ish faoliyatidan mamnunligi haqida

Varkey Foundation Global Teacher Status Index tahlillariga ko'ra, Xitoy, Malayziya, Tayvan, Rossiya va Indoneziyadagi o'qituvchilar dunyodagi eng yuqori maqomga ega ekanligini ma'lum qilgan. O'qituvchi maqomi va PISA natijalari o'rtasida aniq ijobiy munosabatlar mavjud. O'qituvchi maqomi yuqori bo'lgan mamlakatlarda (Xitoy, Tayvan va Singapur) o'qituvchilar maqomi past bo'lgan mamlakatlarga qaraganda (Braziliya va Isroil) o'qituvchilarning natijalari yuqori. Biroq, o'qituvchi maqomi va o'qituvchilar maoshi o'rtasidagi munosabatlar zaif ijobiy. O'qituvchilar maqomi yuqori bo'lgan ko'p mamlakatlarda, shu jumladan Xitoy, Malayziya, Hindiston va Indoneziyada o'qituvchilarning maoshi shunga qaramay past darajada qolmoqda. Xuddi shunday, o'qituvchilar maqomi nisbatan past bo'lgan ko'p mamlakatlarda (Ispaniya, Germaniya) o'qituvchilar maoshi nisbatan yuqori. Shuningdek, o'qituvchilarga bo'lgan hurmat qanchalik baland bo'lsa, ota-ona bolasini o'qituvchilik kasbiga undashi ehtimoli shunchalik yuqori ekanligi aniqlandi. Shunga qaramay, tadqiqotchilarning fikricha, o'qituvchilarning yuqori natijalariga erishish uchun yuqori maosh ham, yuqori o'qituvchi maqomi ham zarur.

TALIS tadqiqotida ishtirokchi mamlakatlar uchun umumiy tavsiyalar

- Kasbiy rivojlanish kurslari ko'proq maktablarda amaldagi jarayonni o'rgatishga qaratilib, biror-bir tayanch maktabning bazasida olib borilishi kerak. Bunday kurslar o'qituvchilarni birgalikda faol rivojlanishiga hissa qo'shadi, ularning zarur bilim va ko'nikmalarga ehtiyojlarini qondiradi, shuningdek, ma'lum bir maktabning xususiyatlariga moslashtiradi.
- Kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanish uchun vaqt ajratish zarur. O'qituvchilarning katta qismi, vaqt yetishmasligi ularning to'liq rivojlanishiga imkon bermasligini ta'kidlashdi. Singapur singari dunyodagi eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlarida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ular faoliyatining ajralmas qismi sifatida e'tibor qaratishadi.
- O'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal qilish uchun boshqa sohadagi odamlar uchun o'qituvchilik kasbiga kirishning turli xil muqobil yo'llarini topish zarur. Bunda adekvat va sifatli o'qitishni ta'minlash mexanizmlarini yaratish zarur.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro
tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi
100115, Toshkent shahar,
Chilonzor tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy
Telefon: (+99871) 207-97-98 (3009, 3005, 3013)



BETTER POLICIES FOR BETTER LIVES

www.oecd.org/talis



www.markaz.tdi.uz



t.me/milliymarkaz



[milliymarkaz.pisa](https://www.facebook.com/milliymarkaz.pisa)



[milliy.markaz](https://www.instagram.com/milliy.markaz)



markaz@tdi.uz